

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlar.....	106
-----------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO‘K: 327.58(57)

TARIXIY GEOSIYOSATDA MARKAZIY OSIYO

ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ В ИСТОРИЧЕСКОЙ ГЕОПОЛИТИКЕ

CENTRAL ASIA IN HISTORICAL GEOPOLITICS

Ravshanov Fazliddin Ravshanovich¹ ¹“Renessans” ta’lim universiteti siyosiy fanlar doktori, professor.Xidirov Ziyadulla Muminovich² ²“Renessans” ta’lim universiteti yuridik fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya

Maqolada Turkiston hududidagi qadimiy davlatlar geosiyosati va munosabatlari, Sharq va G'arb o'rtasidagi xalqaro munosabatlar, Farobiy, Beruniyning, Firdavsiy, Nizomulmuluk, Amir Temur, Alisher Navoiy asarlarida geografik determinizm va geosiyosiy g'oyalari, Shayboniylar va xonliklar davlatchiligida xalqaro munosabatlar, Markaziy Osiyoning jahon bozoridan uzilib qolishi va uning oqibatlari, Rossiya va Xitoyning mazkur mintaqadagi geosiyosati va elchilik munosabatlari, hududda yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik-jadidchilik harakatining geosiyosiy maqsadlari qisqa va mazmunli tarzda ochib beriladi.

Аннотация

В статье кратко и содержательно раскрываются геополитика и взаимоотношения древних государств на территории Туркестана, международные отношения между Востоком и Западом, географический детерминизм и геополитические идеи в трудах Фараби, Бируни, Фирдоуси, Низамульмулька, Амира Темура и Алишера Навои, международные отношения в государственности Шайбанидов и ханстве, изоляция Центральной Азии от мирового рынка и её последствия, геополитика России и Китая в данном регионе и дипломатические отношения, а также геополитические цели просветительско-джадидистского движения, возникшего в регионе.

Abstract

The article briefly and meaningfully explores the geopolitics and relations of ancient states in the Turkestan region, international relations between the East and the West, and the concepts of geographical determinism and geopolitical ideas as reflected in the works of Farabi, Beruni, Ferdowsi, Nizam al-Mulk, Amir Temur, and Alisher Navoi. It also examines international relations during the Shaybanid and khanate statehood periods, the disconnection of Central Asia from the global market and its consequences, Russia's geopolitical strategies and diplomatic relations in the region, as well as the geopolitical objectives of the enlightenment-oriented Jadidist movement that emerged in the area.

Kalit so'zlar: Turkiston, geosiyosat, geografik determinizm, xalqaro munosabatlar, Farobiy, Beruniy, Firdavsiy, Nizomulmuluk, Amir Temur, Alisher Navoiy, Shayboniylar, xonliklar davlatchiligi, jahon bozori, Rossiya imperiazmi, jadidchilik, ma'rifatparvarlik, Markaziy Osiyo tarixi, Ipak yo'li, elchilik munosabatlari, siyosiy uyg'onish.

Ключевые слова: Туркестан, геополитика, географический детерминизм, международные отношения, Фараби, Бируни, Фирдоуси, Низамульмульк, Амир Темур, Алишер Навои, Шайбаниды, государственность ханств, мировой рынок, Российский империализм, джадидизм, просветительство, история Центральной Азии, Шёлковый путь, дипломатические отношения, политическое пробуждение.

Key words: Turkestan, geopolitics, geographical determinism, international relations, Farabi, Beruni, Ferdowsi, Nizam al-Mulk, Amir Temur, Alisher Navoi, Shaybanids, khanate statehood, world market, Russian imperialism, Jadidism, enlightenment movement, history of Central Asia, Silk Road, diplomatic relations, political revival.

KIRISH

O'zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar geosiyosati Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu hudud qadimgi davlat davrida joylashuviga ko'ra savdo yo'llari kesishgan chorrahada bo'lib, bu uning siyosiy va iqtisodiy nufuziga katta ta'sir ko'rsatgan. Hududni miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahamoniylar imperiyasi o'z ta'siriga tortdi. U shu davrlarda Markaziy Osiyo orqali Xitoy va Yevroosiyo hududlari bilan savdo-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirishga harakat qilar edi. Miloddan avvalgi IV asrda makedoniyalik Iskandar Ahamoniylar imperiyasini zabt etgach, Markaziy Osiyo hududining ham bir qismini o'z ichiga olgan keng imperiyani barpo etadi. U o'z hokimiyatini mustahkamlashda qisqa vaqt bo'lsa-da, mintaqaning savdo-iqtisodiy va madaniy

SIYOSAT

aloqalaridan foydalanadi [Muqimov Z., 280.]. So'ng, miloddan avvalgi II va milodiy I asrlarda hudud Qangha davlati tasarrufiga o'tadi. Qangha davlati Surxondaryo va Sirdaryo bo'ylab joylashgan bo'lib, Buyuk ipak yo'lining muhim savdo nuqtalaridan biriga aylangan. Qangha savdo yo'llariga nazorat o'rnatib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan. Milodiy I-III asrlarda esa mintaqani Kushonlar imperiyasi zabt etadi. U Buyuk ipak yo'lining muhim nuqtalariga ega bo'lib, ular orqali savdo va madaniy almashinuvni keng darajada rivojlantiradi. Bu imperiya geosiyosiy jihatdan Xitoy, Hindiston va Eron davlatlari bilan chuqur savdo aloqalarigacha yuksaldi. Hududni V-VI asrlarda Eftalitlar (Oq hunlar) davlati qo'lga kiritib, u eron va hind sivilizatsiyalari bilan aloqaga ko'proq urg'u berdi. Ularning madaniy va siyosiy ta'siri Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) hududida sezilarli bo'lgan [Muqimov Z., 2003. 280.].

Sosoniylar davrida (III-VII asrlar) O'zbekiston hududi geosiyosiy jihatdan eron madaniyati va savdosi ta'siri ostida bo'lgan. Ular Xorazm va Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar bilan savdo va siyosiy aloqalarni rivojlantirgan. VI-VIII asrlarda esa Turkiston hududi Turk xoqonligiga qarashli bo'lib, hududda turkiy xalqlarning ta'siri kuchaygan. Turk xoqonligi Markaziy Osiyoda katta hokimiyatga ega bo'lib, savdo yo'llari va strategik nuqtalarni nazorat qilgan. VII-VIII asrlarda Arab xalifaligi Markaziy Osiyoga ekspansiya qilib, bu hududga islom dinini va madaniyatini kiritgan. Buyuk ipak yo'li orqali savdo yanada jonlangan. Ushbu davlatlar o'rtasidagi geosiyosiy munosabatlar asosan savdo yo'llari, strategik nuqtalar va madaniy ta'sirlar atrofida qurilgan. Ko'rinib turibdiki, Turkiston hududi qadimdan xalqaro aloqalar markazi bo'lib, turli xalqlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi almashinuvlar uchun maydon bo'lgan [Muqimov Z., 2003. 280.].

Qadimgi davrlarda Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, ayniqsa Buyuk Ipak yo'li orqali savdo yo'llariga asoslangan bo'lib, bu yo'llar turli sivilizatsiyalarni bir-biri bilan bog'lab turgan. Turkiston hududi ushbu savdo yo'llarining markaziy nuqtalaridan biri bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li Sharq (Xitoy, Hindiston, Fors) va G'arb (Yevropa, Vizantiya) o'rtasidagi savdo va madaniy almashinuvlar uchun asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qilgan. Bu yo'llar O'rta Osiyo, shu jumladan O'zbekiston hududidan o'tgan. Har bir davlat savdo yo'llariga nazorat o'rnatib, iqtisodiy va siyosiy jihatdan nufuzini oshirgan. Ipak, jun, ziravorlar, qimmatbaho toshlar, g'alla va boshqa tovarlar savdosi juda rivojlangan. Xitoyning ipak to'qimachilik sanoati Buyuk Ipak yo'lining nomi bilan ham bog'langan. Xitoy ipagi G'arbgga jo'natilgan eng qimmatbaho tovarlardan biri bo'lib, G'arbda yuqori baholangan. Bu savdoda O'rta Osiyo davlatlari, jumladan O'zbekiston hududidagi shaharlar savdogarlari vositachilik qilgan. Fors Ahamoniylar va Sosoniylar imperiyalari esa savdo yo'llari orqali Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo bilan yaqin aloqada bo'lgan. Forsda ishlab chiqarilgan qadimiy yunon va forsiy san'at, zargarlik buyumlari va ziravorlar ham savdoning muhim qismini tashkil etgan [Mavlonov O., 2008. 432.].

Vizantiya imperiyasi ham shu yo'llar orqali ipak va boshqa tovarlarni Sharqdan olib kelib, Yevropaga tarqatgan. Vizantiya Xitoy va Hindiston bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo qilmagan bo'lsa-da, O'rta Osiyo va Fors orqali mahsulotlarni import qilgan. Shuningdek, Vizantiyadan G'arbgga olib kelingan mahsulotlar orasida Markaziy Osiyo va Xitoy hunarmandchilik buyumlari va shishadan yasalgan narsalar ham katta talabga ega bo'lgan. O'sha davrlarda Hindiston ham Buyuk Ipak yo'li savdosining muhim ishtirokchisi bo'lib, o'zining ziravorlari, paxtasi va to'qimachilik mahsulotlari bilan tanilgan. Hindistondan Fors, Markaziy Osiyo orqali tovarlar Sharq va G'arbgga tarqatilgan [Mavlonov O., 2008. 432.].

Markaziy Osiyoning yirik shaharlari, ayniqsa Termez, Nasaf, Kesh, Samarqand, Shosh, Buxoro va Urganj kabi shaharlar, savdo yo'llarining muhim markazlari bo'lgan. Bu shaharlar orqali G'arbdan kelgan tovarlar Sharqqa va Sharqdan kelgan tovarlar G'arbgga tarqatilgan. O'rta Osiyodagi savdogarlar va hunarmandlar esa ushbu yo'llarda vositachilik qilish orqali katta daromadlar orttirganlar. Shuni ham aytish lozimki, iqtisodiy almashinuvlar bilan birgalikda Sharq va G'arb o'rtasida madaniy va texnologiya almashinuvi ham rivojlangan. Har bir sivilizatsiya o'zining ilm-fan, hunarmandchilik va texnologiyalarini savdo yo'llari orqali boshqa madaniyatlarga yetkazgan. Masalan, porselyan (farfor) va qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi Xitoydan G'arbgga tarqalgan. Hozirgi O'zbekiston hududidagi qadimgi shaharlar ko'plab o'z mahsulotlari bilan jahon savdosi va bozorlariga kirganlar [Mavlonov O., 2008. 432.]. Umuman olganda, Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar savdo yo'llari orqali rivojlanib, bu davlatlar o'rtasida madaniy almashinuvlar va iqtisodiy daromadlarning shakllanishiga katta hissa qo'shgan.

Qadimgi geosiyosiy munosabatlar doirasida Dovon (Ferg'ana vodiysi), Xitoy, Kushonlar va Qang' davlatlari o'rtasidagi munosabatlar juda katta ahamiyat kasb etgan. Ushbu hududlar jahon savdo yo'llarining kesishgan nuqtalarida joylashgan bo'lib, ularning geosiyosiy ahamiyati iqtisodiy va harbiy kuchlarining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan. Dovon (Ferg'ana vodiysi) qadimgi Xitoy manbalarida juda muhim savdo markazi sifatida tilga olinadi. Xitoy uchun Ferg'ananing otlari juda qimmatli tovar bo'lib, ular "Osmon tulporlari", deb atalgan va Xitoy armiyasi uchun juda muhim hisoblangan. Bu otlarning tezligi va chidamliligi ularni jangovar kompaniyalarda zarur qurol darajasiga olib chiqar edi. Xan sulolasi davrida Xitoy podsholari Dovon bilan savdo munosabatlarini rivojlantirishga harakat qilganlar. Miloddan avvalgi 104-102 yillarda esa Xitoy Ferg'anani butunlay bosib olish uchun harbiy ekspeditsiyalar uyushtirgan. Ammo birinchi ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa-da, keyingi ekspeditsiyalar natijasida Xitoy Dovon bilan savdo shartnomalariga erishgan [Xo'jayev A., 2016. 432.]. Shu kabi, Dovon strategik jihatdan Xitoy va G'arb o'rtasidagi savdo yo'llarining muhim qismi bo'lgan. Uning savdo yo'llari orqali Xitoy ipagi va boshqa tovarlar Turonning boshqa shaharlari, Fors va Yevropaga tarqatilgan.

Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo va madaniy almashinuvlar uchun asosiy yo'l edi va u Markaziy Osiyodan o'tgan, Xitoydan Yevropagacha cho'zilgandi. Turkiston hududi esa ushbu yo'lining markaziy qismi bo'lib, Samarqand, Buxoro kabi ko'plab boshqa shaharlar savdo va madaniyat markazlari sifatida rivojlangan. Buyuk Ipak yo'li orqali sanoat, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, yengil sanoat, kon mahsulotlari tashilgan. Bu savdo yo'li Sharq bilan G'arb o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni kuchaytirgan va davlatlar o'rtasida madaniy va ilm-fan almashinuvini rag'batlantirgan [Bo'riyev O., 2015. 280.]. Joylashuviga ko'ra esa Turkiston shaharlari savdo karvonlari uchun muhim markazlar bo'lib, ularda savdogarlar dam olishgan va o'z tovarlarini sotishgan. Natijada vatanimiz hududi turli xalqlar va madaniyatlarning kesishgan joyi sifatida Sharq va G'arb o'rtasida ko'prik vazifasini bajargan.

Kushonlar imperiyasi (I-III asrlar) Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan katta davlatlardan biri edi, u Buyuk Ipak yo'li va boshqa savdo yo'llarining katta qismini nazorat qilgan va shuningdek, Hindiston, Xitoy, Fors va Rim imperiyalari bilan yaqin aloqalarga ega bo'lgan. Kushonlar davlati buddaviylikning kengayishiga ham yordam bergan, chunki buddaviylik ruxoniylari va savdogarlar Ipak yo'li orqali harakat qilganlar. Kushonlar Hindiston bilan yaqin munosabatlarda bo'lib, ular orqali hind madaniyati va tovarlari Markaziy Osiyoga ham kirib kelgan [Muqimov Z., 2003. 280.]. Bu Kushonlarning iqtisodiy va madaniy jihatdan katta hokimiyatga aylanishiga sabab bo'lgan.

Qang' davlati ham Sirdaryo va Amudaryo bo'ylab joylashgan katta davlatlardan biri bo'lib, milodiy III-V asrlarda juda kuchli davlat sifatida tanilgan. Qang'lar turli savdo yo'llari orqali Xitoy va Shimoliy davlatlar bilan savdo aloqalarini o'rnatgan. Shimoliy savdo yo'li Qang' davlati orqali Xitoy va shimoliy turkiy xalqlar o'rtasida savdo yo'li bo'lgan. Bu yo'l ipak, teri, jun, mis, po'lat va boshqa tovarlar savdosida muhim o'rin tutib, Qang' davlatining iqtisodiy nufuzini oshirgan [Muqimov Z., 2003. 280.]. Qang' davlati savdo yo'llarini himoya qilish va ularni nazorat qilish uchun harbiy kuchini rivojlantirgan. Ular Hunlar va boshqa turkiy xalqlar bilan harbiy va savdo munosabatlariga kirishib, Shimoliy savdo yo'lining muhim markazi bo'lib xizmat qilgan.

Qadimgi va o'rta asrlar geosiyosiy bilimlarining rivojlanishiga O'rta Osiyo mutafakkirlari tomonidan yozilgan asarlar katta ta'sir ko'rsatgan. Ko'plab sayyohlar, shuningdek, Farobiy, Beruniy, Firdavsiy, Nizomulmulk va Amir Temur singari olim va davlat arboblari o'z asarlarida davlat boshqaruvi, siyosiy munosabatlar va jamiyat rivojlanishiga oid murakkab geosiyosiy masalalarni muhokama qilishgan. Ushbu asarlardagi geosiyosiy qarashlar o'sha davrdagi fikrlash va davlatchilikning aniq bir yo'nalishlarini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asari o'ziga xos geografik determinizmni namoyish etadi [Forobiy, 1993. 224.]. Abu Nasr Forobiy bu asarida falsafa va siyosat haqidagi mulohazalarini bayon qiladi. Unda ideal jamiyat va uning rahbarlari qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritadi. Abu Nasr Forobiyning fikricha, odamlar yashaydigan muhit va tabiiy shart-sharoitlar (geosiyosiy omillar) ularning ma'naviyati, ruhiyati va jamiyat tuzilishini belgilaydi. Qadimda bu fikr geografik determinizm sifatida ma'lum bo'lgan — ya'ni insonlar va davlatlarning rivojlanishi tabiiy sharoitlarga bog'liq. Farobiy jamiyatning taraqqiyoti va insonlarning fazilatli bo'lishi ular yashaydigan muhitga ham bog'liq ekanini qayd etadi. Bunday qarashlar ijtimoiy rivojlanishni tushuntirishda muhim bo'lgan.

SIYOSAT

Geografik determinizmga Beruniyning "Hindiston" asarida ham duch kelish mumkin [Beruniy, 1968. 486.]. Beruniy Hindiston geografiyasini mufassal tasvirlar ekan, geografik omillar madaniy rivojlanish va odamlar turmush tarziga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida yozgan. U Hindistonning turli tabiiy sharoitlari (iqlimi, daryolari, tog'lari) odamlarning hayoti, falsafasi va diniy e'tiqodlariga ta'sir qilganini tushuntirgan. Beruniy jamiyatlar o'rtasidagi farqlarni tushuntirishda geografik omillarga katta ahamiyat bergan. U turli iqlim sharoitlaridagi odamlarning turlicha madaniyat va siyosiy tuzilmalarga ega bo'lishini qayd etgan.

Firdavsiyning "Shohnoma" asari aslida Eronning afsonaviy tarixi haqidagi eng mashhur epik poema bo'lib, unda Turon va Eron o'rtasidagi to'qnashuvlar muhim o'rin tutadi. "Shohnoma"da Turon (turkiy xalqlar) va Eron (forslar) o'rtasidagi doimiy jangovar nizolar tasvirlangan. Turon va Eron o'rtasidagi ziddiyatlar madaniy, harbiy va siyosiy qarama-qarshiliklar negizida rivojlangan. Asarda Turon va Eron o'rtasidagi jangovarlik nafaqat harbiy to'qnashuvlar, balki madaniy qarashlar va davlatchilikning turlicha ko'rinishlari sifatida ham namoyon bo'ladi [Boboyev H., 2001. 500.]. Bu asar turkiy va fors xalqlarining o'zaro munosabatlarini aks ettiradi va unda uzoq tarixiy geosiyosiy va madaniy o'zaro ta'sirlar ko'rsatib beriladi.

"Siyosatnoma" asari esa o'rta asrlardagi eng muhim siyosiy falsafiy asarlardan biri hisoblanadi [Nizomulmulk, 1997. 256.]. Asar XII asrda, Saljuqlar davlatidagi davlat arbobi Nizomulmulk tomonidan yozilgan bo'lib, u davlat boshqaruvi, siyosat va siyosiy fikr yuritish masalalariga bag'ishlangan. "Siyosatnoma" nafaqat davlatchilik asoslari va boshqaruv etikasi haqidagi ta'limotlar, balki geosiyosiy masalalar, davlatlarning o'zaro munosabatlari va tashqi siyosatga ham alohida e'tibor qaratadi. "Siyosatnoma" asarida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va hududiy ekspansiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat arboblari va hukmdorlar qanday strategiyalarni qo'llashi kerakligi muhokama qilinadi. Bunda geosiyosiy jihatdan muhim qoidalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

adolatli va kuchli hukmdor - Nizomulmulkning fikricha, hukmdor faqat ichki boshqaruvni yaxshilash emas, balki tashqi tahdidlardan davlatni himoya qilish, hududlarni kengaytirish va geosiyosiy holatni mustahkamlash uchun kuchli bo'lishi kerak. Bunda hukmdorlik davlatni tashqi do'st va dushmanlar bilan muvozanatda ushlaydi;

markaziy hokimiyatning ahamiyati - asarda davlatning mustahkamligi uning markaziy boshqaruvi kuchli bo'lishiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Hududiy ekspansiya va tashqi siyosat faqat ichki tuzilma mustahkam bo'lgan taqdirda muvaffaqiyatli bo'ladi. Shu tariqa, hududiy ekspansiya va boshqaruvning samaradorligi geosiyosiy jihatdan ahamiyat kasb etadi. Nizomulmulk "Siyosatnoma"da davlatning tashqi siyosati va qo'shni davlatlar bilan munosabatlarini ham keng yoritib beradi. U tashqi siyosatdagi geosiyosiy yondashuvlarni quyidagicha tushuntiradi:

diplomatiya va kelishuvlar - Nizomulmulk tashqi siyosatda diplomatiyani qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, davlatlar o'rtasida muvozanatli va to'g'ri diplomatik munosabatlar o'rnatish juda muhim. Qo'shni davlatlar bilan tuzilgan kelishuvlar va ittifoqlar mamlakat xavfsizligi va muvaffaqiyatining kafolati bo'ladi. Shu tariqa, geosiyosiy murosaa davlat mustahkamligini ta'minlashda asosiy omildir;

dushmanlarga qarshi choralar - "Siyosatnoma"da dushman davlatlar bilan qanday munosabat yuritish masalasi ham batafsil yozilgan. Nizomulmulk davlatni tashqi dushmanlardan himoya qilish uchun qo'shinlar va maxfiy xizmat tuzilmalarini samarali tashkil qilishga e'tibor qaratadi. Tashqi tahdidlarning oldini olish uchun kuchli mudofaa va strategik yondashuv muhim ekanini ta'kidlaydi. "Siyosatnoma"da davlatning iqtisodiy barqarorligi va geosiyosiy ahamiyatini ta'minlash uchun qo'shin, savdo yo'llari va strategik nuqtalarni nazorat qilish muhimligiga alohida urg'u beriladi.

Nizomulmulk savdo yo'llari orqali davlatlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va davlatning iqtisodiy holatini mustahkamlash muhimligini tushuntirardi. Unga ko'ra, davlatning geografik jihatdan savdo yo'llari kesishgan hududlarida joylashishi uning tashqi siyosatdagi qudratini oshiradi. Asarda savdo karvonlarini himoya qilish va ular orqali keladigan daromadni nazorat qilish davlat qudratining bir qismi sifatida ko'rsatiladi. Bunday geosiyosiy nazorat orqali davlat boshqalar o'rtasida kuchli pozitsiyaga ega bo'lish mumkin.

Tarixiy Markaziy Osiyo hududi geosiyosati haqida ma'lumotlar beruvchi manbalardan yana biri "Temur tuzuklari"dir [Temur tuzuklari, 2005. 160.]. Asar Amir Temur, uning davlat boshqaruvi, harbiy strategiyalari va tashqi siyosatdagi qarashlari haqidagi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Bu asarda Temurning davlatchilik tajribasi, harbiy yurishlari va xalqaro munosabatlari, shuningdek,

uning geosiyosiy strategiyasi yoritilgan. Asar jahonning turli mintaqalaridagi davlatlarini nazorat qilish orqali qudratli imperiya qurishga qaratilgan siyosiy va harbiy tamoyillarini aks ettiradi. Temurning asosiy maqsadlaridan biri barcha musulmon yerlarini birlashtirish hamda geosiyosiy jihatdan markazlashgan qudratli davlat barpo qilish edi. Bu strategiya nafaqat harbiy kuch bilan, balki siyosiy va diplomatik yo'llar orqali ham amalga oshirilgan.

“Tuzuklar”da Temurning Markaziy Osiyo, Xuroson, Eron, Hindiston, Kavkaz va hatto Osiyo hamda Yevropa davlatlariga qaratgan yurishlari va ularni nazorat qilish uchun qo'llagan strategiyalari batafsil tasvirlangan. U har bir mintaqaning strategik ahamiyatini chuqur tushungan va ularni nazorat qilish orqali o'ziga qo'shni davlatlar va hududlar ustidan siyosiy ta'sir o'rnatishga erishadi. Asarda Temurning global geosiyosiy maqsadlari aniq ko'rsatilgan. Uning fikricha, barqaror va muvaffaqiyatli davlat qurish uchun faqat bir mintaqani emas, balki qit'alarni qamrab olgan katta davlatga asos solish kerak. Temurning harbiy yurishlari va ulardagi geosiyosiy omillar harbiy strategiyani nafaqat ichki tartibni saqlash, balki tashqi dushmanlar ustidan g'alaba qozonish, mustaqil davlatlar geosiyosiy maqsadlarini nazorat qilish uchun ham qo'llash g'oyasiga asoslangan. Temurning fikricha, kuchli qo'shin nafaqat davlat hududlarini himoya qiliuvchi, balki uzoq va yaqin davlatlar va hududlar harbiy, savdo-logistik, siyosiy va iqtisodiy harakatlarini gegemon davlat strategik maqsadlariga muvofiq rejalashtirishlariga zamin hozirlaydi hamda gegemon davlat tomonidan geosiyosiy ahamiyatli sohalar va yo'llardagi muhim punktlar va hududlarni nazoratga olishga imkon yaratadi.

Bizga ma'lumki, o'z yurishlari davomida Temur armiya intizomi, logistika va ta'minotni yaxshi yo'lga qo'ygan, bu esa uning harakatlaridagi geosiyosiy ustunliklaridan biri bo'lgan. “Tuzuklar”da harbiy bazalar va strategiyalar orqali hududiy nazorat o'rnatish muhimligi ta'kidlanadi. Shu kabi, asarda davlat boshqaruvida markazlashgan hokimiyatning ahamiyati alohida urg'u bilan ta'kidlangan. Temur markaziy hokimiyatni kuchaytirish va uni mustahkam saqlash orqali davlatni nazorat qilish muhimligini chuqur darajada tushungan. Bu hududiy nazorat va ichki barqarorlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega edi. Temur hududlarni boshqarishda viloyat hokimlarini tayinlash va ularning markaziy hokimiyatga bo'ysunishiga alohida e'tibor qaratgan. Bu tizim har bir viloyatning mustahkam boshqaruvini ta'minlagan va davlatning barcha hududlaridagi nazoratni kuchaytirgan.

Temur nafaqat harbiy kuchga tayangan, balki diplomatiya va siyosiy munosabatlarni ham samarali qo'llagan. Ko'plab tarixiy manbalarda uning qo'shni, shuningdek, qator uzoq hududlarda joylashgan davlatlar bilan o'rnatgan siyosiy va diplomatik munosabatlari keng tasvirlangan. Temur qo'shni davlatlar bilan tinchlik va hamkorlik kelishuvlarini tuzish orqali o'z hududiy manfaatlarini himoya qilgan. U qudratli dushmanlar bilan to'qnashuvlarni kamaytirish va o'z o'rnini mustahkamlash uchun diplomatik yondashuvlardan unumli foydalangan. Bu geosiyosiy muvozanatni saqlash va ichki barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri edi. Temur savdo yo'llari va davlatlararo aloqalarga katta ahamiyat qaratgan. U savdo yo'llarini nazorat qilish orqali davlatning iqtisodiy qudratini oshirishga va qo'shni davlatlar bilan xavfsiz savdo munosabatlari orqali siyosiy pozitsiyani mustahkamlashga intilgan.

Temurning geosiyosiy qarashlarida Islom dinining o'rne ham muhim o'rin tutadi. Uni o'z davri Islom dunyosini mo'g'ul istibdodidan tozalovchi va dinning himoyachisi sifatida ko'rgan. U musulmon davlatlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga, ularni o'zi o'ylagan yuksak geosiyosiy maqsadlar atrofida birlashtirishga harakat qilgan. Temur musulmon davlatlarni birlashtirish va ularni umumiy manfaatlar atrofida to'plash orqali jahon geosiyosiy yetakchiligini musulmon dunyosi qo'lida ko'rishni istagan.

Xullas, “Temur tuzuklari”da Amir Temurning qudratli imperiya qurishga qaratilgan global maqsadlari, uning davlat boshqaruvidagi markazlashgan hokimiyati, savdo yo'llarini nazorat qilish orqali davlatning iqtisodiy va siyosiy qudratini oshirish strategiyalari va boshqa geosiyosiy masalalar batafsil yoritilgan. Asar nafaqat Temur davridagi geosiyosiy jarayonlarni tushunishga, balki umumiy davlat boshqaruvi va tashqi siyosat nazariyalarini o'rganishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi Uning maqsadi jahon hokimiyatini o'rnatib, o'z nazorati ostida yagona davlat barpo etishdan iborat bo'lgan geosiyosiy munosabatlari ochib berishdan iborat. Bu holat davlatni mustahkamlash uchun madaniy va siyosiy integratsiya (zamonaviy geosiyosiy integratsiya, masalan, Yevropa Ittifoqi) qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. Geosiyosiy munosabatlar uchun muhim bo'lgan diplomatik strategiya metodi qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

SIYOSAT

Shunday qilib, Navoiyning bu asari geosiyosiy masalalarni keng qamrab oladi. Hududiy ekspansiya, savdo yo'llarini nazorat qilish, madaniy va siyosiy integratsiya, tashqi xavfsizlik va diplomatiya kabi geosiyosiy jarayonlar asarda alohida o'rin tutadi. Navoiy Iskandarni adolatli va muvaffaqiyatli hukmdor sifatida tasvirlab, uning geosiyosiy strategiyalari orqali o'sha davrning xalqaro munosabatlari va davlatchilik modelini ko'rsatib beradi.

Temur barpo etgan Turon imperiyasi va uning jahon siyosatidagi geosiyosiy mavqei XVI asrning boshida hududni Shayboniy bosib olishi bilan parchalandi [O'zbekiston diplomatiyasi, 2019. 508.]. Shu bilan Markaziy Osiyo xalqaro siyosatda yetakchilik mavqeini yo'qota boshladi. Hududdagi turli davlatlar va sulolalar o'rtasidagi ziddiyatlar, savdo yo'llarining o'zgarishi xalqaro siyosiy vaziyatni o'zgartirdi. Shayboniylar garchi Markaziy Osiyodagi qudratli sulola sifatida yon-atrofdagi Safaviylar, Boburiylar, hamda Xitoy kabi qudratli davlatlar bilan muayyan xalqaro munosabatlarni o'rnatgan bo'lsa-da, bu uni xalqaro maydonda yetakchi kuch sifatida ifodalamagan. Shayboniylar davlatining asosiy siyosiy va ma'muriy tizimi Chingizxon davridagi kabi tuzilgan bo'lib, zamondan ancha ortda qolib bordi. Uning davlat hokimiyati markazlashtirilgan va xonadoning boshlig'i (xon) yuqori hokimiyatga ega edi. G'arb mamlakatlarida katta strategik g'oyalar va harakatlar boshlanib ketgan bir davrda xonlikda strategik rejalashtirish va rivojlantirish maqsadlari o'ta mahalliyashgan va sulola hukmdorlari o'z davlatini hali ham turli qabilalar va urushlardagi g'alabalar orqali mustahkamlagan. Shayboniylar dunyo o'zgarishlaridan ortda qolib, xalqaro munosabatlarda aytarli faqat Xuroson muammosi bilan shug'ullandi. Xuroson tarixan muhim strategik hudud bo'lib, u savdo yo'llari, xususan, Ipak yo'lida muhim ahamiyatga ega edi. Ammo, dengiz yo'llari kashf etila boshlagan bir vaqtda Shayboniylarning muhim xalqaro masalasi G'arb uchun ahamiyati pasayib borayotgan Buyuk ipak yo'lining Xuroson hududi ustidan nazoratni qo'lga kiritish bo'ldi.

Markaziy Osiyo ichki nizolarining kuchayib borishi oxir-oqibatda uning xonliklardan iborat mayda va kuchsiz davlatlarga bo'linib ketishiga olib keldi. Mintaqaviy birlashish, ko'maklashish, uni iqtisodiy rivojlantirish, qo'shin salohiyatini oshirish, geosiyosiy mavqeni saqlash va xalqaro munosabatlarni takomillashtirish siyosatining o'ta susayishi mintaqani asta-sekin jahon geosiyosiy munosabatlari doirasidan chetga surdi va G'arbning kolonializm siyosati obyektlaridan biriga aylantirdi.

Shayboniylar davri boshlarida Markaziy Osiyo jahon siyosatidagi mustaqil mintaqalar sifatida savdo va siyosiy jihatdan muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, XVII-XIX asrlarda hududning sanoat, texnologik va harbiy rivojlanishdan ortda qolishi, xalqaro savdo yo'llaridan uzilishi uning iqtisodiy va siyosiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Buyuk geografik kashfiyotlar va dengiz yo'llarining rivojlanishi sababli, Markaziy Osiyo orqali o'tuvchi qadimiy Ipak yo'li ahamiyatining yo'qolishi sababli Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro bozordan uzilib, iqtisodiy jihatdan zaiflashdi. Natijada Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy tanazzulga uchradi va ichki ziddiyatlar ko'paydi. Shuningdek, tashqi kuchlar, jumladan, Rossiya va Buyuk Britaniya kabi davlatlar Markaziy Osiyodagi hokimiyat vakuumidan foydalanib, hududda o'z siyosiy ta'sirlarini kuchaytirishga harakat qilishdi.

XVII asrdan boshlab Rossiya Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini kuchaytirish uchun xonliklar bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga intildi [Игнатьев Н., 1897. 186.]. Xonliklar va Rossiya o'rtasidagi elchilik munosabatlari XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda geosiyosiy kurashlar, savdo yo'llari, hamda Rossiyaning mintaqadagi ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan harakatlari bilan chambarchas bog'liq. Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyodagi Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari bilan turli diplomatik missiyalar va elchiliklar aloqalarini o'rnatishga harakat qilgan. Ayniqsa, XIX asrda Markaziy Osiyo xonliklari bilan Rossiya o'rtasidagi elchilik munosabatlari, geosiyosiy maqsadlarni belgilab bergan muhim voqealardan biri bo'lib, bu aloqalar xonliklarning tashqi siyosati, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga kirishga qaratilgan harakatlari va kelajakdagi bosqinlarga zamin yaratgan [Глушенко Е., 2010. 575.]. Xoxlov, Cherkasskiy, Buxgols va Beneveni elchiliklari Rossiyaning mintaqaga bo'lgan qiziqishining asosiy diplomatik bosqichlarini tashkil qilgan.

1602 yilda Ivan Xoxlov boshchiligidagi elchilik Markaziy Osiyo bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish va harbiy-siyosiy ahvolni o'rganish maqsadida Buxoro yuborilgan ilk diplomatik missiyalardan biri edi [Glushenko YE., 2010. 575.]. U muvaffaqiyatsiz tugagan bo'lsa-da, Rossiyaning Markaziy Osiyo geosiyosiy salohiyatini aniqlash yuzasidan ilk diplomatik qadamlaridan biri bo'ldi.

Cherkasskiy elchiligi esa 1714-1717 yillarda Rossiya imperatori Petir I tomonidan Buxoro xonligiga yuborilgan dastlabki elchilik bo'ldi. Uning asosiy maqsadi Markaziy Osiyodagi iqtisodiy

sharoit, savdo yo'llarini o'rganish, savdo va diplomatik munosabatlarni o'rnatish edi. Sharq savdo yo'llari o'sha paytda Rossiya uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan, chunki u o'zining iqtisodiy nufuzini kuchaytirish va Markaziy Osiyo bilan savdo aloqalarini yaxshilashga intilayotgandi [Глуценко Е., 2010. 575.]. Rossiya G'arb bilan ko'plab to'qnashuvlarga borayotgan bir pallada Janubning kuch-quvvati, kelajak strategiyasini bilishni ham istardi. Shu sababli Cherkasskiy elchiligi orqali Rossiya Buxoro xonligi haqidagi ma'lumotlarni to'pladi va mintaqaning siyosiy ahvolini o'rgandi.

1715 yildan esa Rossiya Xiva xonligini o'rganishga kirishadi. Knyaz Ivan Buxgols elchi sifatida Xivaga yuborildi, lekin uning missiyasi muvaffaqiyatsiz tugadi. Xonning shubhalari tufayli Buxgols qo'lga olinib, Rossiyaga qaytishga majbur bo'ldi. So'ng u Qo'qon xonligiga yuborildi. Buxgols elchiligi orqali Rossiya Qo'qon va boshqa xonliklar bilan hamkorlik qilishga va ushbu hududlarda o'z ta'sirini kuchaytirishga intilayotgan edi.

XVIII asrning o'rtalarida Xiva xonligiga yo'llangan Beneveni missiyasi ham diplomatik tashabbuslardan biri bo'lib, Rossiyaning hududiy va siyosiy manfaatlarini rivojlantirishga qaratilgan edi. Rossiyaning bu davrdagi asosiy maqsadlaridan biri Markaziy Osiyo xonliklari bilan savdo munosabatlarini rivojlantirish va ularni Rossiyaning siyosiy va iqtisodiy ta'sir doirasiga olish edi.

Umuman olganda, Rossiya Markaziy Osiyodagi geosiyosiy muvozanatni o'z foydasiga o'zgartirishga harakat qilardi [Терентьев М., 1906. 164.]. Elchixonalar orqali u xonliklarning siyosiy zaifligini o'rganib, hudud ekspansiyasi uchun tayyorgarlik ko'rdi. Rossiya xonliklar haqida siyosiy va harbiy ma'lumotlarni to'pladi. Ular keyinchalik Rossiyaning mintaqani bosib olishi va uni to'liq mustamlakaga aylantirishda muhim rol o'ynadi.

Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi mintaqa davlatlari bilan birga xalqlarining ham jahonda yuz berayotgan tezkor o'zgarishlar bilan yaqindan tanishishiga yo'l ochdi. Rus asoratidan qutulish harakatlari orasida ayniqsa XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik-jadidchilik harakatlari geosiyosiy jihatdan ham muhim rol o'ynagan [Jadid ma'rifatparvarlik harakati, 2016. 216.]. Bu harakatlar Markaziy Osiyodagi xalqlarning ijtimoiy va madaniy uyg'onishiga turtki bo'lgan. Ma'rifatparvarlik harakati jadidchilikning asosi edi. Jadidchilikning asosiy maqsadi xalqni savodli qilish, ilmiy bilimlarni tarqatish va zamonaviy ta'lim tizimini yaratish edi. Bu harakatlarning geosiyosiy maqsadlari ham bor edi, ular aslida mustamlakachilikka qarshi turish, Markaziy Osiyoda salohiyatli milliy mustaqillikni ta'minlash va mintaqaning jahon siyosatidagi mavqeini qaytarish edi [Salomov SH., 2017. 312.]. Jadidlar ushbu ulug'vor natijalarga aholining yalpi tarzda bilim-salohiyati, ya'ni ma'rifati va xabardorligini oshirish orqali erishiladi, deb hisoblaganlar.

Shu asosda ular yangi usuldagi maktablar ochish, zamonaviy fanlar va ilmiy bilimlarni o'rganishga katta ahamiyat berdilar. Ular jamiyatning rivojlanishi uchun ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga urindilar, Markaziy Osiyodagi urf-odatlarini qayta ko'rib chiqib, milliy va diniy qadriyatlarni saqlash bilan birga, ularni zamonaviy tamoyillar bilan muvofiqlashtirishga harakat qildilar [Munavvarqori, 2018. 158.]. Jadidlar Yevropaning ilmiy va texnologik taraqqiyotini o'rganib, uni Markaziy Osiyodagi islohotlarga tatbiq etishni maqsad qilganlar. Ular zamonaviy texnologiyalar va ilm-fanni milliy rivojlanish uchun muhim vosita deb bilganlar [Abdurashidov Z., 2008. 107.]. Shu kabi, fuqarolik huquqlarini kengaytirish, adolatli davlat tizimini yaratish va mustaqillikka intilish g'oyalarini ilgari surib, mustamlakachilikka qarshi kurashish va milliy ozodlik g'oyalarini targ'ib qildilar.

Jadidlar Markaziy Osiyodagi xalqlarning o'zligini tiklash va ularni millat sifatida shakllantirishga katta e'tibor qaratishgan. Ular ta'lim tizimini isloh qilish, milliy tarix va madaniyatni uyg'otish orqali bu maqsadni amalga oshirishga intilishgan. Jadidlar uchun ta'lim asosiy o'rinni tutardi. Ular eski maktab va madrasalarni zamonaviy maktablar bilan almashtirish, ilm-fan va ma'rifat orqali xalqni savodli qilish tarafdori edilar [Jadid ma'rifatparvarlik harakati, 2016. 216.]. Ular shunday asosda yangi avlodni tarbiyalab, o'z davrlari jahon taraqqiyotiga yaqinlashish, pirovard natijada esa mintaqaning bir zamonlar mashhur bo'lgan xalqaro o'rni va geosiyosiy mavqeini tiklash mumkin deb o'ylardilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tarixiy voqelik, manbalar va mutafakkirlar asarlari shundan dalolat beradiki, Turkiston hududi qadimdan strategik va geosiyosiy jihatdan muhim mintaqaga bo'lib kelgan. U yer quruqlik qismining eng muhim nuqtasida sifatida Sharq va G'arbni bog'lagan, iqtisodiy va madaniy almashinuv markazi sifatida rivojlangan. Lekin tashqi tahdidlar, ichki nizolar va zamonaviy talablarga moslasha olmaslik sababli bu hudud asta-sekin xalqaro maydondagi yetakchi mavqeini yo'qota boshlagan. Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasida ko'prik bo'lgan bu mintaqada qadimiy

SIYOSAT

davlatlardan tortib, Amir Temur va Alisher Navoiy davrigacha bo'lgan tarixiy jarayonlar shundan dalolat beradiki, bu hudud dunyoning nafaqat iqtisodiy va geosiyosiy markazi, balki intellektual va madaniy rivojlanish maskani ham bo'lgan. Shu bilan birga, keyingi asrlarda geosiyosiy tafakkurning yetarli rivojlanmasligi, ichki siyosiy parokandalik va tashqi tahdidlarga qarshi mustahkam strategik yondashuvning yetishmasligi natijasida mintaqaning xalqaro mavqei pasaygan va tashqi ta'sirga ochiq bo'lib qolgan. Jadidlar harakati esa bu holatdan chiqish uchun ma'rifat, zamonaviy ilm-fan va milliy uyg'onish orqali yangi geosiyosiy maqsadlarni shakllantirishga urinish bo'lgan.

Ammo turli davrlarda geosiyosiy harakatlar, bilimlar va tajribalar bu hududdagi xalqlarning qayta uyg'onishi, mustaqillik va o'zligini anglash yo'lida muhim qadam bo'lgan. Tahlillarimizdan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, geosiyosiy taraqqiyot, ma'naviy uyg'onish va milliy o'zlikni saqlash bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayonlardir, bugungi kunda ham ularni o'rganish va qadrlash milliy taraqqiyotning muhim asosidir. Bugungi Markaziy Osiyo davlatlari tarixiy Turkistonning strategik va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan hududi bo'lib, uning geosiyosiy mavqeini tiklash ularning birgalikdagi muhim vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. –224 b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Toshkent.1. –T.: Fan, 1968. –486 b.
3. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. –Toshkent.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1991. –832 b.
4. Boboyev H. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. O'quv qo'llanma. –Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2001. –500 b.
5. Nizomulmulik. Siyosatnoma. –Toshkent.: Adolat. 1997. –256 b.
6. Temur tuzuklari. –Toshkent.: Sharq, 2005. –160 b.
7. O'zbekiston diplomatiyasi tarixi (qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha). 6-jild. –T.: O'zbekiston, 2019. –508 b.
8. Muqimov Z. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. – Toshkent.: Adolat, 2003. – 280 b.
9. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. – Toshkent: Akademiya, 2008. – 432 b.
10. Терентьев М. История завоевания Средней Азии, т. 1-3, СПб., 1906.
11. Глущенко Е. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования. –М.: ЗАО Издательство Сентрполиграф, 2010. — 575 с.
12. Игнатьев Н. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 г. флигель-адъютанта полковника Н. Игнатьева, СПб., 1897.
13. Salomov SH. G'oyalar jangi XIX-XX asr Turkiston va Janubiy Kavkaz – Toshkent.: Istiqol nuri, 2017. - 312 b.
14. Munavvarqori Abdurashidxonov - Turkiston taraqqiyparvarlarining sardori. -Toshkent.: Mumtoz so'z, 2018. 158 b.
15. Abdirashidov Z. Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda jadidchilik. -Toshkent.: Document de travail de l'IFEAC «IFEAKning ish hujjatlari» seriyasi, 2008. 107 b.
16. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari // “Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2016 yil 15 aprel -Toshkent.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. 216 b.
17. Bo'riyev O. Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasidan lavhalar. -Toshkent.: Tafakkur, 2015. -280 b.
18. A.Xo'jayev, A. Aytbayev, SH. Qo'ldashev, F. Djumaniyozova. Markaziy Osiyo tarixi Xitoy manbalarida. Toshkent -2016. 432 b.